

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH

Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi

abdullayevasabohat50@gmail.com

Annotatsiya Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi kriptovalyuta faoliyatining huquqiy holati, tartibga solish va operatsion talablarini o'rganadi. Tadqiqotda 2017-2022 yillar davomida amalga oshirilgan asosiy qonun hujjatlari, hukumat qarorlari va me'yoriy-huquqiy bazalar tahlil qilingan.

Kirish

Dunyoda kripto-aktivlar aylanmasi sohasi jadal rivojlanib, ushbu sohaga qiziqish kundan kunga qiziqish ortib bormoqda. Manbalarga ko'ra Jahon kriptovalyuta bozorining kapitallashuvi bugungi kunda 2,08 trillion dollarni tashkil etadi, bu oxirgi 24 soat ichida -1,13% o'zgarishga teng. Xususan, O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar masalasi so'nggi yillarda dolzarb mavzuga aylandi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va global moliyaviy tizimlarning o'zgarishi fonida, O'zbekiston hukumati kripto-aktivlar aylanmasi sohasini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim qadamlar qo'ydi. Shu xususda O'zbekistonda sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilingan.

Metodologiya

1. Huquqiy hujjatlarni o'rganish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.
2. Davlat organlarining qarorlarini ko'rib chiqish: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi va boshqa vakolatli organlarning qarorlari o'rganildi.
3. Qonunchilik bazasini tahlil qilish: Kripto-aktivlar bilan bog'liq qonunchilik, jumladan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini ko'rib chiqildi.
4. Litsenziyalash va ruxsat berish tartiblarini o'rganish: Kripto-aktivlar sohasida faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlari tahlil qilindi.

Natija

O'zbekistonda kripto-aktivlar masalasi so'nggi yillarda dolzarb mavzuga aylandi. Bu borada quyidagi asosiy holatlarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Huquqiy tartibga soluvchi qonun hujjatlari:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar agentligi faloliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3150-son qarori qabul qilingan. Nazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (Agentlik, ILMA) – kripto-aktivlar aylanmasi, kapital bozori, sug'urta, elektron tijorat, lotereya tashkil etish va bukmekerlik faoliyati sohaslarini tartibga solish, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat tashkiloti hisoblanadi[1].

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun hujjatiga ko'ra kripto-aktivlar aylanmasi sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha eng muhim vazifalar deb quyidagilar etib belgilangan:

1. investitsiyaviy va tadbirkorlik faoliyatining turli shakllarini diversifikatsiya qilish uchun kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan mayning (turli kripto-aktivlarda yangi birliklar va komissiya yig'implari formatida mukofot olish imkonini beradigan taqsimlash platformasini ta'minlash va yangi bloklar yaratish bo'yicha faoliyat), smart-kontrakt (raqamli tranzaksiyalarni avtomatik tartibda amalga oshirish orqali huquq va majburiyatlar bajarilishini nazarda tutuvchi elektron shakldagi shartnoma), konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, shuningdek, ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish;

2. ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ish ko'nikmalariga ega malakali kadrlarni tayyorlash;

3. kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat va ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarni jalb qilish;

4. xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini hisobga olgan xolda ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalarini joriy etish uchun zarur huquqiy bazani yaratish;

5. raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash[2].

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 02.09.2018 yildagi PQ-3926-sonli "O'zbekiston Respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko'zda tutilgan[3].

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining, 15.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3379 bo'lgan buyrug'iga ko'ra Kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini amalga oshirish qoidalari belgilangan bo'lib, unga muvofiq kripto-birjada kripto-aktivlar savdolarini tashkil etish va amalga oshirish tartib-taomillari belgilangan.

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug'i, 15.08.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3380 bo'lgan **"Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"**gi nizomda litsenziya olish tartibi va shrtlari keltirib o'tilgan[4].

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining, 28.09.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3388 bo'lgan qaroriga ko'ra **Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash, ularni to'lash va taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom** tasdiqlangan bo'lib, ushbu nizomda O'zbekiston Respublikasi hududida mayning va kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar (maynerlar va xizmatlar provayderlari) tomonidan ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun yig'imlar (bundan buyon matnda yig'imlar deb yuritiladi) to'lanishi belgilangan.

Yig'imlar ularni to'lash sanasida amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdoriganisbatan quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- a) mayning faoliyati uchun — BHMning 10 baravari;
- b) xizmatlar provayderlari bo'yicha:
 - kripto-birja faoliyati uchun — BHMning 740 baravari;
 - mayning-pul faoliyati uchun — BHMning 100 baravari;
 - kripto-depozitariy faoliyati uchun — BHMning 5 baravari;
 - kripto-do'kon faoliyati uchun — BHMning 185 baravari.

Shuningdek, yig'imlar maynerlar va xizmatlar provayderlari tomonidan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyat bilan shug'ullanish uchun

belgilangan tartibda litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan paytdan e'tiboran har oyda to'lanishi belgilangan[5].

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining, 31.10.2022-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3395 bo'lgan buyrug'iga ko'ra "Kripto-do'kon faoliyatini amalga oshirish" qoidalarini keltirib o'tilgan.

- O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining, 30.12.2022 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3409 bo'lgan buyrug'iga ko'ra **Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida tartibga solish maxsus rejimida ("Tartibga solish qumdoni" maxsus rejimi) ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom** kuchga kirgan bo'lib, ushbu nizom kripto-aktivlar aylanmasi sohasida tartibga solish maxsus rejimida ("Tartibga solish qumdoni" maxsus rejimida) (bundan buyon matnda maxsus rejim deb yuritiladi) ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish, tajriba-sinov loyihalarining amalga oshirilishini monitoring qilish, maxsus rejim ishtirokchilarini maqomidan mahrum qilish hamda maxsus rejim ishtirokchilarining reyestrini yuritish tartibini belgilaydi[6].

Javobgarlik masalalari

O'zbekiston Respublikasida kripto-aktivlar bo'yicha javobgarlik masalalari hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, umumiy huquqiy ramkalar asosida quyidagi javobgarlik turlarini ko'rib chiqish mumkin:

1. "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 155⁴ va 155⁵ – moddalari kripto-aktivlar sohasidagi qonunbuzarlik bo'yicha javobgarlik masalalarini keltirib o'tgan bo'lib, unga ko'ra: 155⁴-modda. Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish va 155⁵-modda. Mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirish bilan bog'liq jinoyatlarga javobgarlik masalalari belgilab o'tilgan[6].

2. O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning XX¹-bobi 278⁸- Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish va 278⁹- Mayning faoliyatini qonunga xilof ravishda amalga oshirishga javobgarlik belgilangan[7].

Muhokama

1. Muvozanatli yondashuv: O'zbekiston hukumati kripto-aktivlar sohasini tartibga solishda innovatsiyalarni rag'batlantirish va xavfsizlikni ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda. Bu yondashuv soha rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini muntazam baholab borish zarur.

2. Xalqaro tajriba integratsiyasi: O'zbekiston xalqaro tajribani o'rganib, uni milliy sharoitlarga moslashtirmoqda. Bu yondashuv global

kripto-bozorga integratsiyalashuvni osonlashtirishi mumkin, lekin mahalliy xususiyatlarni hisobga olish muhim.

3. Huquqiy noaniqliklarga yechim topish: Garchi asosiy huquqiy baza yaratilgan bo'lsa-da, kripto-aktivlar texnologiyasining tez rivojlanishi tufayli yangi huquqiy masalalar paydo bo'lishi mumkin. Qonunchilikni muntazam yangilab borish va moslashuvchan tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zarur.

4. Moliyaviy savodxonlik va xavfsizlik: Kripto-aktivlar bilan bog'liq xatarlar haqida aholini xabardor qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish choralari ko'rilishi lozim.

5. Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: "Tartibga solish qumdoni" kabi maxsus rejimlar innovatsion loyihalarni sinab ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Bu yondashuv yangi texnologiyalarni joriy etishda muvozanatli yechim bo'lishi mumkin.

Xorijiy kripto-birjalar O'zbekiston Respublikasiga kirib kelishi mumkinmi?

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Kripto operatsiyalarni amalga oshirishda xizmat provayderlariga quyidagilar kiradi:

1. Kripto-do'kon;
2. Kripto birja;
3. kripto depozitariy.

Va yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 3150-sonli qaroriga ko'ra: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohada faoliyatni litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillari bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

O'zbekiston fuqarolari faqatgina Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan litsenziyaga ega bo'lgan xizmat provayderlari - kripto do'kon, kripto birja va kripto depozetariylar orqali kripto operatsiyalarni amalga oshirishlari shart.

Hozirgi kungacha litsenziyaga ega bo'lgan kripto birjalar:

1. "Uznex" birjasi ("Kobeo Group" MCHJ qarashli) ilovasi va sayti orqali kripto operatsiyalarni amalga oshirish qonuniy hisoblanadi.
2. "Kobeo Group" MCHJ xorijiy korxonasi litsenziyani 28.08.2022 sanasida qo'lga kiritgan.
3. "COINPAY" MChJ tomindan kripto-birja sifatida litsenziyalarga ega. Lekin, ushbu kompaniya hozirgacha ilova yoki saytlarini ishlab chiqarishmagan bo'lib, faqatgina kripto do'kon sifatida offline xizmat ko'rsatishadi.

Bundan kelib chiqadigan bo'lsak xorijiy kripto-birjalar ham O'zbekiston Respublikasiga kirib kelishi mumkin faqatgina litsenziya olish orqali.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi kriptο-aktivlar sohasini tartibga solish bo'yicha sezilarli qadamlar qo'ydi. 2018-2022 yillar davomida qabul qilingan qonun hujjatlari va me'yoriy aktlar kriptο-aktivlar aylanmasi, kriptο-birjalar faoliyati, mayning va boshqa tegishli sohalarni tartibga solishga qaratilgan.

1. Huquqiy asos: O'zbekistonda kriptο-aktivlar uchun aniq huquqiy asos yaratilgan, bu esa ushbu sohaning rivojlanishiga imkon beradi.

2. Tartibga solish organi: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) kriptο-aktivlar sohasini tartibga soluvchi asosiy organ sifatida belgilangan.

3. Litsenziyalash: Kriptο-aktivlar bilan bog'liq faoliyat yuritish uchun litsenziya olish talab etiladi, bu esa sohada tartib va nazoratni ta'minlaydi.

4. Javobgarlik: Ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari belgilangan, bu esa qonunbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

5. Xalqaro integratsiya: O'zbekiston xorijiy kriptο-birjalarning mahalliy bozorga kirib kelishiga imkon beradi, lekin bu jarayon litsenziyalash orqali nazorat qilinadi.

Umuman olganda, O'zbekiston kriptο-aktivlar sohasini tartibga solishda sezilarli progress qilgan. Biroq, bu sohaning global miqyosda tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotganini hisobga olgan holda, qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2017, 27-iyul). O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar agentligi faloliyatini tashkil etish to'g'risida. PQ-3150-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2018, 3-iyul). O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kriptο-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3832-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2018, 2-sentabr). O'zbekiston Respublikasida kriptο-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3926-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2022-yil 14-iyuldagi 32-son buyrug'iga ilova. Kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida Nizom.

5. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Qarori. (2022, 28-sentabr) [Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun yig'imlar miqdorini belgilash, ularni to'lash va taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizom.](#)
6. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining buyrug'i. (2022, 30-dekabr) Kripto-aktivlar aylanmasi sohasida tartibga solish maxsus rejimida ("Tartibga solish qumdoni" maxsus rejimi) ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom. 3409-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
8. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
9. [https://www.blockchaintexno.uz/news/o%E2%80%98zbekistonda-gonuniy-kripto-aktivlar-faoliyatini-olib-borish-mumkinmi%3F.](https://www.blockchaintexno.uz/news/o%E2%80%98zbekistonda-gonuniy-kripto-aktivlar-faoliyatini-olib-borish-mumkinmi%3F)